

**SOVET HUKUMATI DAVRIDA OILA INSTITUTIDAGI O‘ZGARISHLARNI  
TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRAGA TA’SIRI**

**Axrarova Azizaxon Nigmanovna,**

*O‘zR VM huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ekspozitsiya  
bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha PhD,  
[azizaaxraroval23@gmail.com](mailto:azizaaxraroval23@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sovet hukumati davrida an‘anaviy oila munosabatlarini o‘zgartirish orqali ayollardan “sovet tarafdorlari” ni shakllantirish va uning oqibatlari yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** oila, “tenghuquqlilik”, “mahkumlik”, “ozodlik”, “hujum” harakati.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается трансформация традиционных семейных отношений в советскую эпоху и последствия этой трансформации.

**Ключевые слова:** семья, «равенство», «убеждение», «свобода», движение «хужум».

**Abstract.** This article examines the transformation of traditional family relations during the Soviet era and its consequences.

**Keywords:** family, "equality," "conviction," "freedom," "hujum" movement.

**Kirish.** Insoniyat o‘z tarixining taraqqiyot bosqichiga kirgan vaqtdan boshlab oila qurishga, avlodini davom ettirishga harakat qilgan. Oila ayniqda Sharqda muqaddas hisoblangan. Oilada ayollarning o‘rni beqiyos hisoblangan. Ayollarga insoniyatning davomiyligini ta‘minlovchi, avlodlarni munosib tarbiyalashdagi hissasi uchun e‘zozlangan. Ularni og‘ir mehnatdan ehtiyotlab, uy ishlari, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish uchun sharoit yaratib berilgan. Shunga qaramasdan, aksar Sharq ayollari erlari bilan baravar o‘qimishli, bilimli, ma‘rifatli kishilar bo‘lib, davlat boshqaruv ishlarida ham ishtirok etgani tarixiy manbalardan ma‘lum. Ular o‘z uylarida yoki o‘zlari yashagan mahallada maktab ochib, qiz bolalarni (ba‘zan o‘g‘il bolalarni ham) o‘qitganlar.

Mustabid sovet tuzumi yillarida an‘anaviy oila munosabatlariga o‘zgartirish kiritish orqali ayollarga, go‘yoki ularga “tenghuquqlilik” berib, o‘zlarining manfaatlari yo‘lida foydalanishga kirishdi. Buning natijasida bir qancha oilalar parokanda bo‘ldi, farzandlar yetimlikka mahkum qilindi. YA’ni, sovet hokimiyati o‘z oldiga “ayollarning butunlay yangi avlodini, ularni faqat oilani o‘ylaydigan shaxslar emas, balki ko‘proq jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotida erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalashni asosiy vazifa qilib qo‘ygan edi”. [7; 25]

Bundan maqsad, sovet hokimiyatiga xotin-qizlardan iborat o‘zlarini tarafdorlari va barcha sohalarda ayollarni mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish bo‘lgan. Bu masala go‘yoki mahalliy xotin-qizlarni “mahkumlikdan” “ozodlikka” chiqarish, har sohada erkaklar bilan “teng huquqliligini” ta‘minlash niqobi asosida amalga oshirildi. Shu maqsadda turli qaror hamda ko‘rsatmalar qabul qilindi.[8; 11]

**Muxokama va natijalar.** Xotin-qizlarni “ozodlikka chiqarish” bahonasida 1927-yilda respublikada “Hujum” xarakati boshlandi. 1927-yil 8-mart kuni O‘zbekistonda bo‘lgan yuzlab mitinglarda qatnashgan minglab xotin-qizlar o‘z paranjilarini tashladilar. Lekin bu ijtimoiy-siyosiy tadbirni o‘tkazishda, mavjud bo‘lgan ijtimoiy ahvol, milliy – ma’naviy dunyoqarash, oiladagi nihoyatda nozik bo‘lgan erkak bilan ayol o‘rtasidagi munosabat, kishilar ongiga singib qolgan islom qadriyatlari, oila va ayollar masalasidagi mavjud an’analar, urf-odatlar e’tiborga olinmadi.[10; 376]

Paranji tashlashda yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, bu tadbir majburlash, zo‘rluk va shoshma-shosharlik bilan amalga oshirildi. Buning natijasida ko‘pgina ayollar beayb qurbon bo‘ldilar. “Hujum” shu qadar shiddatli tus oldiki, hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo‘yicha O‘zbekiston va Turkmaniston respublikalari o‘rtasida “sotsialistik musobaqa” ham tashkil qilindi. U tarixga “millionlar shartnomasi” nomi bilan kirgan. Musobaqaga respublikalarning sovet sud organlari ham qo‘shildilar. Ular chiqargan qarorlarning birida “ajrashish to‘g‘risidagi ishlar va oilaviy mulkiy da’volar sud tomonidan shoshilinch ravishda ko‘rib chiqilishi kerak” deyilgan.[11; 3]

Bu ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, sharqda muqaddas hisoblangan oilaga zarba berilib, ayol oila uchun emas, balki o‘sha davr tuzumining “odamlari” bo‘lishi lozim edi.

Mustabid tuzum o‘zining siyosiy va iqtisodiy maqsadiga erishish uchun “shariatda belgilangan qonun-qoidalar xotin-qizlarning oiladagi huquqsizligini ta’minlashi”ni ro‘kach qilib, “ko‘pxotinlik va qalin olish bu dinning aybi”, deb ko‘rsatib, diniy e’tiqodni inkor etish, sovet oila-nikoh qonunchiligini targ‘ib qilish maqsadida xotin-qizlar bo‘limining maxsus vakilasi - huquqni himoya qiluvchi “xalq maslahatchilari”ning faoliyatidan keng foydalandi. 1923-yil dekabrda TASSR Adliya xalq komissarligi “Advokatura tarkibiga tub millat xotin-qizlarini jalb qilishni kengaytirish haqida” maxsus qaror qabul qildi. [2; 18]

Xotin-qizlar bo‘limining maxsus vakilasi ayollar huquqini himoya qiluvchi sifatida sudda ishtirok eta boshladi. Xalq sudining o‘ziga xos maqsadi, vazifalari, ish shakllari va usullari tizimi mavjud bo‘lib, huquq bo‘yicha maslahatchi ayollar tayyorlash, huquqni targ‘ib qilish, ochiq sudlar, maxsus huquq kunlari va soatlarini tashkil etish, majlislar o‘tkazish shular jumlasiga kirgan. 1924-yil oxirida Toshkent va Samarqand viloyat xalq sudlarida 250 nafarga yaqin ayol-xalq maslahatchisi sifatida faoliyat yuritgan. Shuning uchun VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi O‘rta Osiyo huquqshunoslik kurslarida ta’lim olish uchun mahalliy millat vakillariga 20% o‘rin ajratish haqida ko‘rsatma ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, tayyorlangan huquqshunos-maslahatchi ayollarga ularning o‘z haq-huquqdarini anglatishdan ham ko‘ra, ko‘proq sotsialistik tuzum qonunlarini targ‘ib etishdan ta’lim berilgan. [2; 18]

20-yillarda xotin-qizlar teng huquqligini ta'minlashning butun bir tizimi ishlab chiqildi, ularni himoya qilishning qonunchiligi takomillasha bordi, xotin-qizlar bo'limlarining ularni iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga jalb etish borasidagi faoliyati yangi shakl va mazmunlar bilan boyidi. Xotin-qizlar faoliyatiga ta'sir etishning mafkuraviy va ishlab chiqarish omillari tashkil etildi. 20-yillarda bunday omillardan ayniqsa, huquqiy konsultatsiyalar, savodsizlikni tugatish maktablari, maxsus xotin-qizlar klublari va magazinlar, xotin-qizlar komsomol birikmalari, qizil burchaklar, ayol dehqon uylari, xotin-qizlar kooperatsiyalari, delegatlik majlislari va boshqalar ayniqsa, muayyan ahamiyat kasb etgan edi.[1; 19]

Ayni paytda joylarda xotin-qizlar bo'limlarini tashkil etish ishiga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Xotin-qizlar bo'limlari ayollar, qizlarning haq-huquqlarini tiklash, ular ozodligini ta'minlashda talay ishlarni amalga oshirdi. Xotin-qizlar bo'limlarning bosh vazifasi quyidagicha tarzda belgilab berildi. Xotin-qizlar o'rtasida muntazam ish olib borib, har bir xotin-qiz mehnatkashni sovet qurilishiga tortish, mamlakat xo'jalik-siyosiy hayotida faol qatnashtirish, hunarmandchilik artellari, bolalar bog'chalari va yaslilari tashkil etish, madaniy-oqartiruv ishlarini kuchaytirishdan iborat edi.

1920-yil mart oyidan boshlab xotin-qizlar bo'limi qoshida xotin-qizlar bilan ishlash seksiyalari ham tashkil etila boshlandi. [3; 32]

Uning tashkil etishdan bosh maqsad esa savodsizlikni tugatish maktablari, mehnat maktablari, bolalar bog'chalari, ona va bolalar uylari, tug'ruqxonalar, xotin-qizlar klublari, akusherlik kurslarini barpo etish qilib belgilandi.[4; 9]

Demak, sovet hukumati ayollarga ko'mak bahonasida faol sovetcha mafkurani targ'ib etish tizimini ham shakllantirib bordi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlabki yillarda xotin-qizlar kuchidan keng foydalanish masalasiga ehtiyotkorona yondashildi. Ular birdaniga fabrika va zavodlarning og'ir ishlariga tortilmadi. Ayollar og'ir yuk ko'taradigan va sog'lig'iga zararli, murakkab sohalarida ishlamasligi alohida ta'kidlandi. Biroq 20- yillar oxiriga kelib bu yondashuv keskin o'zgardi. Ayollar va erkaklar mehnatini tom ma'noda tenglashtirish g'oyasi ustuvorlik qildi. Natijada ayollarni ishlab chiqarishning barcha sohalariga faol jalb etish boshlandi. O'zbekistonda ko'plab ishchi kuchi yetishmasligini niqob qilib aksariyat partiya va sovet rahbarlari uni xotin-qizlar hisobiga to'ldirishni taklif etardilar. Jumladan, qurilish ishlarini ayollar zimmasiga yuklash mumkin. ular g'isht tashishi, terishni va duradgorlikni uddalay oladi, degan xulosa chiqarildi. Ayollarni og'ir sanoatga jalb etish ham uzlyuksiz amalga oshirildi. O'zSSR MIQ huzuridagi xotin-qizlar mehnati va turmushini yaxshilash komissiyasi raisi A.Volnii

ayollar metall va yog‘ochni qayta ishlash sanoatida ham bemalol ishlay oladilar, deb ta’kidlad.[10; 383]

**Xulosa.** Bunday bir tomonlama yondoshuv o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini bilmaslik, yoki bilgan taqdirda ham uni mensimaslik oqibati bo‘lib, o‘zbek ayoli ko‘nikmasiga mutlaqo zid bo‘lgan og‘ir mehnatga jalb qilish va ular evaziga sanoatni jadal rivojlantirishdan iborat edi. Shuning uchun A.Volniiy. “Biz metallni qayta ishlash sanoatiga 10 ming ishchi tayyorlashimiz zarur, ularning 15%i, 27000 traktorining 20 mingi xotin-qizlar bo‘ladi”, deb aytgan edi. [10; 383] 1932-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, paxta terimida ham xotin-qizlar mehnatidan maksimal darajada foydalanish maqsadida 58 kishidan iborat bor-yo‘g‘i 9 ta xotin-qizlar brigadasi tashkil etilgan bo‘lib, ularning bu boradagi fidokorona mehnati tufayli bu yilgi paxta hosili to‘liq, faqat mehnatkash ayollar tomonidan terib olingan. Paxta terimida faol qatnashgan ayollar tuman partiya qo‘mitasi tomonidan taqdirlandi. [12; 112]

Ayollarni kolxozlarga jalb qilish qiyinchilik bilan kechayotgani uchun shunday yo‘llar bilan ularni rag‘batlantirilgan.

Sovetlarga xos “tenghuquqlilik”ka erishish oqibatida, 1939-yilga kelib, ayollar erkaklar bajaradigan ishning 50 % ini egallashdi. Bu ko‘rsatkich ayniqsa, qishloq xo‘jaligida yaqqolroq ko‘zga tashlandi. 1930-yili O‘zbekiston va Turkmanistonning paxtakor tumanlarida yashovchi ayollar jamoa va davlat xo‘jaliklaridagi ishchi kuchini 80%ini tashkil qilardi. Ular qishloq xo‘jalik ishlarining 15 ta sohasida. urug‘ tozalashdan tortib, yer haydash, ekin ekish, unga ishlov berish va terib olishgacha bo‘lgan barcha ishlarda qatnashardi. [6; 31]

Yoppasiga jamoa xo‘jaliklariga ayollar maishiy shart-sharoitlar, xususan bolalar bog‘chasi yo‘qligidan bir qo‘lida yoki yelkasida bolasini ko‘tarib dalada ishlardilar. Bu partiya-sovet tashviqotchilari tomonidan “kolxozchilarning yuksak ongliligi” sifatida talqin qilingan. Sovet “g‘amxo‘rligi”ning eng zo‘r timsoli, ayollar uchun maxsus “yengil ketmonlar” ishlab chiqarilgan edi.[5]

Yana shuni e‘tiborga olish kerakka, o‘zbek qizlariga “Svetlana”, “Lyudmila”, “Roza” kabi ismlar qo‘yila boshlandi. [9]

Bu davrda xotin-qizlarning faoliyati totalitar tuzum tomonidan maxsus “qolip”ga solingan, ularga nisbatan o‘ta mafkuralashtirilgan siyosat olib borilgan bo‘lsa-da, o‘zbek xotin-qizlari o‘zlarining insonparvarligi, milliy qadriyatlarini saqlab, doimo ularga sodiq qola oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алимova Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы.-Ташкент. Фан, 1991.
2. Жўраева Н. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат.(XX асрнинг 20-80-йиллари мисолида). Ўқув қўлланма.-Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013.
3. Нишонбоева Қ.В. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари (20-30-йиллар). Тажриба ва оқибатлар. Тарих фан. номз. дисс.–Тошкент, 1998
4. Оқилов К, Аббосова Л. Ўзбекистон хотин-қизлари маданий қурилишда.-Тошкент. Фан, 1976.
5. Правда Востока. 1932, 19 июля.
6. Ризел Ф. Женщина-националка в борьбе за хлопкоуборочную//Революция и национальности.-Москва, 1932. №9.
7. Собирова Д.Т. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40-80 йиллари). Тарих фан. номз. дисс.–Тошкент, 2009.
8. Собрания законов и распоряжений СССР 3 январь 1921 год. Постановления и резолюция Всероссийского съезда Советов Рабочих крестьянских, красноармейских казачьих Депутатов (23-29 декабря 1920 год).–Москва, 1921.
9. Тюрин К.Д. Некоторые вопросы семейного права УзССР и задачи борьбы с феодально.-байским отношением к женщине. \ Научные записки\ . Выпуск. 25. Т. 1965 г.
10. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. Тошкент. Шарқ, 2000.
11. О‘зМА 904-fond, 1-ro‘ухat, 137-yig‘majild, 3-varaq.
12. О‘зМА 86-fond, 1-ro‘ухat, 6723-yig‘majild.